

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“AVTOMOBILSOZLIK” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “Uz SeaMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o‘zgaruvchanlik xususiyatini taxlil qilish (benzobak misolida).

Bitiruvchi “AT” yo`nalishi
4 bosqich 084-11 guruh
talabasi:

J.Abdujabborov

Fakultet dekani:

N.Xalilov

Kafedra mudiri:

dots. T. Almatayev

Bitiruv malakaviy ishi
rahbari:

ass. Sh.Isroilov

Maslahatchilar:

ass. B.Qayumov

dots. A.Abduraxmonov

kat.o‘q. A.Sotvoldiyev

Andijon – 2015

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“AVTOMOBILSOZLIK” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO`YICHA

T O P S H I R I Q

ABDUJABBOROV JAMOLIDDIN ABDURASUL O`G`LI

(talabaning familiyasi, ismi-sharfi)

1.Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “Uz SeaMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatini taxlil qilish (benzobak misolida).

Institut bo`yicha 2014 yil 26 dekabrda 194-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma`lumotlar:

- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari;
- O`zbekiston Respublikasida “Keksalarni ezozlash” yili munosabati bilan amalga oshirilayotgan tadbirlar, rivojlatirish qaror va ijrolari;
- “Uz SeaMyung” korxonasining tarixi va ishlab chiqarish jarayonlari rivoji;
- “Uz SeaMyung ” korxonasining yig`uv sexi ma`lumotlari;
- Ilmiy- texnik adabiyotlar ;
- Hayot faoliyati xavfsizligi va qoidalari;

3.Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:

1) Kirish: Mavzu bo`icha O`zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, “keksalarni ezozlash” yili dasturida amalga oshirilayotgan tadbirlar, rivojlatirish qaror va ijrolari, “Uz SeaMyung” korxonasining tarixi va ishlab chiqarish jarayonlari rivoji;

2) Mavzuning dolzarbligi: “Uz SeaMyung” korxonasining o`zgaruvchanlik xususiyatini o`rganish bugungi kunda g`oyatda dolzarbligi asosi;

3) Adabiyotlar sharxi: Mavzu bo`icha ilmiy - texnik adabiyotlarda va internet ma`lumotlarida keltirilgan : “Uz SeaMyung” korxonasining o`zgaruvchanlik xususiyati haqidagi ma`lumotlarini olib va ularga tegishli bo`lgan masalalari adabiyotlari taxlil qilinadi;

4) Asosiy qism: “Uz SeaMyung” korxonasining o`zgaruvchanlik xususiyati xaqidagi umumiy ma`lumotlar;

5) Texnologik qism: “Uz SeaMyung” korxonasining o`zgaruvchanlik xususiyati bilan bog`liq muammolar echimlarni asoslash;

6) Iqtisodiy qism: “Uz SeaMyung” korxonasining o`zgaruvchanlik xususiyatini o`rganish (payvandlash sexi misolida) iqtisodiyligini asoslash.

7) Hayot faoliyat xavfsizligi qismi: Payvandlash jarayonining xavfsizlik qoidalari.

8) Xulosa va takliflar: “Uz SeaMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining oʻzgaruvchanlik xususiyatini taxlil qilish (benzobak misolida) masalalari boʻyicha xulosa va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

9) Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati: OʻzR Prezidenti qarorlari va asarlari. Ilmiy-texnik adabiyotlar. Darsliklar. Oʻquv qoʻllanmalar. Ilmiy ommabob jurnallar. Internet saydlari.

10) Ilova: Mavzu boʻyicha internet maʼlumotlari

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari roʻyhati:

- 1) “Uz SeaMyung” korxonasining bosh sxema chizmasi.
- 2) 1-Payvandlash sexining sxema chizmasi.
- 3) 2- Payvandlash sexining sxema chizmasi.
- 4) Nuqtali payvandlash jixozlarining chizmasi.
- 5) Rolikli payvandlash jixozlarining chizmasi.
- 6) Texnik-iqtisodiy koʻrsatkichlar

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari boʻyicha maslahatchilar:

№	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	27.12.2014	09.01.2015		Sh.Isroilov
2	Mavzuning dolzarbligi	09.01.2015	03.02.2015		Sh.Isroilov
3	Adabiyotlar sharxi	03.02.2015	02.03.2015		Sh.Isroilov
4	Asosiy qism	02.03.2015	03.04.2015		Sh.Isroilov
5	Texnologik qism	04.04.2015	01.05.2015		Sh.Isroilov
6	Iqtisodiy qism	01.05.2015	12.05.2015		A.Sotvoldiyev
7	Hayot faoliyat xavfsizligi qismi	12.05.2015	16.05.2015		A.Abduraxmonov
8	Xulosa va takliflar	16.05.2015	25.05.2015		Sh.Isroilov
9	Foydalanilgan adabiyotlar roʻyhati	26.05.2015	27.05.2015		Sh.Isroilov
10	Ilova	27.05.2015	30.05.2015		Sh.Isroilov
11	1-chizma	02.05.2015	12.05.2015		Sh.Isroilov
12	2-chizma	12.05.2015	20.05.2015		Sh.Isroilov
13	3-chizma	20.05.2015	25.05.2015		Sh.Isroilov
14	4-chizma	26.05.2015	30.05.2015		Sh.Isroilov
15	5-chizma	01.06.2015	05.06.2015		Sh.Isroilov
16	6-chizma	06.06.2015	08.06.2015		Sh.Isroilov

6. Topshiriq berilgan sana: 27.12.2014 y.

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi: 30.05.2015 y.

Bitiruv malakaviy ishi rahbari:

Isroilov Sh.Sh _____(imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qildi:

Abdujabborov A.J _____(imzo)

Kafedra mudiri:

Almatayev T.O. _____(imzo)

MUNDARIJA

1. KIRISH	
2. MAVZUNING DOLZARBLIGI	
3. ADABIYOTLAR SHARXI.....	
4. ASOSIY QISM.....	
5 . TEXNOLOGIK QISMI.....	
PAYVANDLASH TURLARI.....	
NUQTALI PAYVANDLASH.....	
CHOKLI PAYVANDLASH.....	
6 . IQTISODIY QISMI.....	
7. HAYOTIY FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	
8. XULOSA VA TAKLIFLAR.....	
9. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI.....	
10. ILOVALAR	

1.KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning “Jaxon moliyaviy-inqirozi, O‘zbekiston Sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari” kitobida yoritilishicha, bugungi kunda iqtisodiyotimizni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha dastur ishlab chiqilmoqda[1].

"Keksalarni e‘zozlash yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda 100 yoshga to‘lgan va undan oshgan shaxslarga munosib e‘tibor qaratish, shuningdek, pensionerlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida 2015 yilning 1 mayidan 100 yoshga to‘lgan va undan oshgan fuqarolar pensiyasiga har oyda eng kam ish haqining 100 foizi miqdorida ustama to‘lash belgilandi.

2015 yil davomida 75 yoshga to‘lgan va undan oshgan fuqarolardan tayinlangan pensiya va nafaqalarning hisoblanishi, shuningdek, qonunchilikda ko‘zda tutilgan imtiyozlarning qo‘llanilishi to‘g‘riligini tekshirish natijalariga ko‘ra aniqlangan ortiqcha to‘langan pensiya va nafaqalar miqdori hisobdan chiqarildi [2].

“2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir” I.A.Karimov[3].

O‘zbekiston Respublikasining jahon bozoridagi raqobatdoshligini oshirish va mavqeini mustahkamlashga yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar va yuksak texnologiyalarga asoslangan zamonaviy tarmoqlar va ishlab chiqarish sohalarini jadal rivojlantirish siyosatini davom ettirish-asosiy ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. “2011-2015 yillarda O‘zbekiston sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida” gi dasturida ana shu ustuvor yo‘nalishning asosiy maqsadi, vazifalari va ahamiyati keltirilib o‘tiladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini jadal yangilash—eng muhim ustuvor vazifa hisoblanadi. Investitsiyalar salmoqli qismining sanoatni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash dasturlarini amalga oshirishga yo‘naltirilishi, yirik ishlab chiqarish korxonalarini qurishni yakunlash va foydalanishga topshirish, barcha yirik korxona va ishlab chiqarish quvvatlarida jahon tajribasida sinovdan o‘tgan zamonaviy texnologiyalar bilan almashtirilishi lozim bo‘lgan uskuna va texnologiyalarning ro‘yhatini aniqlash uchun texnik audit o‘tkazish zarurligi shular jumlasidandir.

Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan mamlakatimizda 2013 yilga “Obod turmush yili” deb nom berildi. Bundan ko‘zlangan maqsad, buning mohiyati va ahamiyati, mazkur yil bo‘yicha qabul qilinadigan davlat dasturining asosiy ustuvor yo‘nalishlari hamda ularni amalga oshirish yo‘l-yo‘riqlari, bu borada aholining turli qatlamlari, butun jamiyatimizning oldida turgan dolzarb vazifalari keng taxlil etilib, g‘oyat muhim fikr hamda xulosalar ilgari surilgan. Ta‘kidlash kerakki, ma‘ruzada uzoq, muddatli strategik maqsadlarimiz — dunyodagi zamonaviy rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o‘sinh sur‘atlarini yanada oshirish, xalqimizning xayot sifati va darajasini yuksaltirish, jahon xamjamiyatidan munosib o‘rin egallash borasida erishilgan marralarga xolisona baho berilib, davlatimiz va jamiyatimiz xayotida demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha oldimizda turgan eng muhim ustuvor vazifalar aniq-ravshan belgilab berildi

Iqtisodiyotni turg‘un rivojlanib borishida ishlab chiqarishni yangi texnika va texnologiyalar bilan jihozlanganligi etakchi hisoblanadi. SHu maqsadda respublikamizda yangi va zamonaviy mashina va mexanizmlar ishlab chiqarish tobora keng yo‘lga qo‘yilmoqda. Misol tariqasida avtomobilsozlikni ko‘rish mumkin [4].

Andijon shahridagi “Uz-SeaMyung Co” AJ 27 Dekabr 1996 yilda korxonaning tashkil etilishi milliy avtomobillarimizga yonilg‘i boklari, avtomobillarning payvandlanuvchi butlovchi qismlari ishlab chiqarilishi keng

miqyosida yo‘lga qo‘yildi. Bu qo‘shma korxonaning mahsuloti mustahkamligi bilan ajralib turadi. Uning yuqori sifatliiligi haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Qo‘shma korxonani tashkil etishdan asosiy maqsad avtomobillar uchun butlovchi qismlarni chetdan keltirilishini qisqartirish va ularning tannarxini pasaytirishdan iborat bo‘lganligi bois, zavod faoliyatining dastlabki yillarida uning mahsulotining iste‘molchisi faqat “Uz-DEU Avto” kompaniyasi bo‘lgan edi. Dastlab “Uz-SeaMyung Co” QK konveyeridan “Tiko”, “Damas” va “Neksiya” avtomobillari uchun yonilg‘i boklari ishlab chiqarila boshladi. Keyinchalik zavod “Matiz” uchun ham butlovchi qismlar ishlab chiqarishga kirishdi.

“GM-Uzbekistan” OAJ avtomobillariga agregat va ehtiyot qismlarni mamlakatimizda ishlab chiqarish borasida ko‘plab qo‘shma korxonalar ishga tushirilmoqda. Bunday qo‘shma korxonalar Andijon, Namangan, Farg‘ona va boshqa viloyatlarda tashkil qilindi. Masalan: Andijonda “Uz Dong Xong Co”, “UzDong Yang Co”, “Uz Koram Co”, “Uz Dong Ju Paint Co”, “Uz SaeMyung Co”, “Uz Dong Vong Ko”, “Uz Kodji Ko”, “Avto Oyna”, “Uz Dong Tong Ko” va boshqa ko‘plab qo‘shma korxonalari ishga tushirildi, bular avtomobilning saloni ichki qoplamalari, oldi va orqa bamperlar, asboblar, panellar, benzobaklar, lak-bo‘yok materiallari, sideniyalar, shovqin so‘ngdirgichlar va boshqalar avtomobil qismlarini ishlab chiqarmoqdalar. “GM-Uzbekistan” OAJ va unga aloqador qo‘shma korxonalarning barpo etilishi mamlakatimiz xalq xo‘jaligining avtotransportga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, minglab zamonaviy ish o‘rinlar bunyod etilishiga sabab bo‘ldi. Shuning uchun ham yurtboshimiz I.A.Karimov: “Avtomobil sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining tayanchiga aylanib bormoqda” — deb bejiz xitob qilmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi ana shu dolzarb muammoni echishga qaratilgan bo‘lib, u quyidagi qismlardan tashkil topgan: Kirish qismida bitiruv malakaviy ishida yoritilgan mavzuning qisqacha mazmuni yoritilgan; Mavzuning dolzarbliigi bitiruv malakaviy ishini bajarish oldidan to‘plangan ma‘lumotlar asosida qo‘shma korxona payvandlash jihozlar tarkibi o‘rganildi. 2-qismda mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi yoritilgan; ishning asosiy qismida [4].

2.MAVZUNING DOLZARBLIGI

Respublikamizda avtomobil sanoati va transportini rivojlanishi, ularga boʻlgan talabning oshishi va avtomobillardan samarali foydalanish zaruriyati avtomobillarni texnik tayyor holatda ushlab turishni talab etadi. SHuningdek avtomobil zavodlaridagi hamda avtomobil ishlab chiqaruvchi zavodlarga xom-ashyolarni etkazib beruvchi qoʻshma korxonalardagi texnologik jihozlardan samarali foydalanish uchun ularga muntazam texnik qarov koʻrsatish lozim boʻladi.

Prezidentimiz I.A. Karimovning “Oʻzbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoʻlida” gi asarida umumiy qiymati 24 milliard AQSH dollaridan ziyod boʻlgan qariyb 300 ta investitsiya loyihalarini bajarish rejalashtirilgan. Jumladan, bunda yangi qurilish loyihalari- 18,5 milliard dollarni, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash boʻyicha loyihalar esa taxminan 6 milliard dollarni tashkil qiladi. Dasturga kiritilishi moʻljallanayotgan bu loyihalar avvalambor yoqilgʻi- energetika, kimyo, neft- gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, engil va toʻqimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir [3].

Hozirgi kunga kelib "GM-Uzbekistan" YOAJ zavodi ishlab chiqargan avtomobillar soni qariyb 2 mlnga etkazildi.

Respublika avtomobillar uchun butlovchi qismlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturini amalga oshirish maqsadida oʻnlab qoʻshma korxonalar tashkil etildi. Bunday qoʻshma korxonalar Andijon, Namangan, Fargʻona va boshqa viloyatlarda tashkil qilindi. Bular Janubiy Koreyalik sheriklar ishtirokida tashkil etilgan zavodlar:

“UzKoramKo” - oldi va ora bamperlar, asbob panellari, Neksiya uchun zarba kuchini yutuvchi qurilmalar, ayrim plastmassa qismlari;

“OʻzTong XongKo” - barcha avtomobillar uchun oʻrindiqlar;

«OʻzDong YAngKo» - eshiklar va koʻzovning qoplovchi qismlar (obshivka, polik va h.k.);

“UzSem YUngKo” – benzobaklar, koʻzovning yirik panellari;

“UzDongjuKo”- barcha turdagi avtomobil lok-bo‘yoqlari, germetik materiallar va h.k.;

“UzDongVonKo”- barcha turdagi glushitellar va zarbaga qarshi eshiklarga qo‘yiladigan balkalar;

“UzKojeKo” – barcha turdagi elektr simlari.

Bu korxonalarining beshtasi Andijon, “Uz DongVonKo” Asaka, “UzKojeKo” esa Xonobod shaharlarida joylashgan.

“Uz SeaMyung” korxonasining o‘zgaruvchanlik xususiyatini o‘rganish (payvandlash sexi misolida), avtomobilsozlik korxonasining o‘zgaruvchanlik (гипкотехнология) xususiyatlarini o‘rganish, qulayliklari, imkoniyatlarini baxolash, moddiy-texnika bazasini o‘rganish bosh maqsad xisoblanadi.

“Uz SeaMyung” korxonasi tashkil etilganidan buyon o‘zining o‘zgaruvchan texnologiyalari, robotatexnologiyalari sababli zamon talablariga mos avtomobillar ishlab chiqarishda o‘z xissasini qo‘shib kelmoqda.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida qo‘shma korxonaning ichki imkoniyatlari chuqur o‘rganish ko‘zda tutilgan.

“Uz SeaMyung” korxonasidagi barcha jixozlari, zamonaviy texnologiyalari Janubiy Koreyadan keltirilgan. Payvandlash uskunalari Hyosung, ABB, ABP korparatsiyalari tomonidan ishlab chiqarilgan. Ularning qulayliklari o‘zgaruvchanlik xususiyatga egaligi, maxsulot sifatini yuqori darajada ekanligida. Robotatexnologiya, jiglar, payvandlash va moslamalari.

Tekshirishning maqsadi va vazifasi

Robotatexnologiya qulayliklari va avtomobilsozlikdagi o‘rni.

1. Payvandlash ishlarini bajaruvchi robotlar xaqida tushuncha.
2. Payvandlash ishlarini zamonaviy metodlarini ko‘rib chiqish.

“Uz SeaMyung” korxonasidagi barcha payvandlash jixozlarini xususiyatlarini o‘rganish, jixozlar xarakteristikalarini taxlil qilish, xulosa va takliflash ishlab chiqish. Korxonaning umumiy ma‘lumotlarini to‘plash.

3. ADABIYOTLAR SHARXI

Ushbu bitiruv malakaviy ishini yozishda Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari to'plamlaridan, o'zbek va rus olimlarining ilmiy adabiyotlaridan, gazeta va jurnallardan hamda internet ma'lumotlaridan keng foydalandim. Avtomobillar detallari va ularni ishlab chiqaruvchi texnologik jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, ularning kundalik vazifalarini o'z vaqtida bajarilishi ularning ishlash davrini uzaytirilishini va uning ishonchliligini oshishini ta'minlaydi. Buning uchun yuqori sifat bilan ishlaydigan ta'mirlovchi va qayta tayyorlovchi korxonalar, shohobchalar va avtoservislar ichida avtomobillar qismlarini tayyorlaydigan bo'limlar barpo etish lozim.

1. Prezidentimiz Islom Karimovning "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli kitobida shunday deydi: mamlakatimizda barqaror samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinyotgan islohatlar bugungi kunda o'zining natijalarini namayon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, axoli daromadlarining o'sishini taminlash, samarali tashqi savdo xamda investitsiya jarayonini kuchaytirish, qishloq ho'jaligini islox qilish, kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustaxkamlashda axamiyatli yutuqlar qo'lga kiritilishi haqida aytib o'tilgan.[1].

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2015 yil 14 apreldagi "Keksalarni e'zozlash yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda 100 yoshga to'lgan va undan oshgan shaxslarga munosib e'tibor qaratish, shuningdek, pensionerlar, 1941-1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini manzilli ijtimoiy himoya qilish va moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish maqsadida ko'rilayotgan chora tadbirlari to'g'risida ma'ruzasi [2].

3. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar

mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida respublikamizda transport tarmog‘i rivojlanishi va kelgusidagi loyixalar to‘g‘risida[3].

4. “Uz-SeaMyung Co” AJ ishlab chiqarishni mahalliyashtirishda muhim ahamiyatga ega. “Uz-SeaMyung Co” zavodida tayyorlangan yoqilg‘i boklari, payvandlanuvchi qismlar O‘zbekiston ichki bozori, Rossiya va MDH ning boshqa mamlakatlarida sotilayotgan Shevrolet modellarida qo‘llaniladi.

5. E. Fayzullayev “Transport vositalarining tuzilishi va nazaryasi“ darslikda avtomobillarning konstruktsiyalari, mexanizmlari umumiy to‘zilishi ishlash prinsipi xamda avtomobillarning madifikatsiyalanish sinfi xaqida keng yoritilgan.

6. SH. U. Yo‘ldoshevning “Mashinalarning ishonchliyligi va tamirlash asoslari“ nomli darsligida O‘zbekiston sharoitida foydalaniladdigan avtomobil, traktor va qishloq xo‘jalik mashinalarining ishonchliylig asoslari, ishonch liylik ko‘rsatkichlari, mashinalarning ishdan chiqish sabablari, isdan chiqqan mashinalarning tamirlash asoslari, tamirlash ishlab chiqrish jarayoni, yeyilish oqibatlari, yeyilishga qarshi kurash choralari, yeyilgan detallarni tiklash usullari, moxiyati, qo‘llanish soxalari, mashinalarni tamirlash va detallarni tiklashning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari yoritilgan.

7. Xamraqulov O., Xamraqulov X. larning “Avtomobil detallarini qayta tiklash qobilyatini qayta tiklash” nomli o‘quv qo‘llanmasida avtomobillarning detallarining ishdan chiqish sabablari, ish qobilyatini yo‘qotgan detallarni ttiklash usullari, rejim va texnologik ko‘rsatkichlariva boshqalar keng qamrovda yoritilgan.

8. SH. U. Yo‘ldoshevning “Mashinalarning ishonchliyligi va tamirlash asoslari“ nomli darsligida O‘zbekiston sharoitida foydalaniladdigan avtomobil, traktor va qishloq xo‘jalik mashinalarining ishonchliylig asoslari, ishonch liylik ko‘rsatkichlari, mashinalarning ishdan chiqish sabablari, isdan chiqqan mashinalarning tamirlash asoslari, tamirlash ishlab chiqrish jarayoni, yeyilish oqibatlari, yeyilishga qarshi kurash choralari, yeyilgan detallarni tiklash usullari, moxiyati, qo‘llanish soxalari, mashinalarni tamirlash va detallarni tiklashning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari yoritilgan.

9. Xamraqulov O., Xamraqulov X. larning “avtomobil detallarini qayta tiklash qobiliyatini qayta tiklash” nomli o‘quv qo‘llanmasida avtomobillarning detallarining ishdan chiqish sabablari, ish qobiliyatini yo‘qotgan detallarni tiklash usullari, rejim va texnologik ko‘rsatkichlari va boshqalar keng qamrovda yoritilgan.

10. Xamroqulov O., Magdiev SH. “Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi” darsligida amaliy faoliyatidagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati, ya‘ni avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish va joriy ta‘mirlash, texnologiyasi, hamda avtotransport korxonalarda ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagi tarkibga moddiy texnik ta‘minotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstrimal tabiiy-iqlim va yo‘l sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi, hamda mahsuslashtirilgan harakatdagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof muhitga zararli ta‘sirining yo‘nalishlari va ularni kamaytirish yo‘llari keltirilgan.

11. Asatov E.A., Tojiboev A.A. “Ishonchlilik nazariyasi va diagnostika asoslari” o‘quv qo‘llanmasida transport vositalarining texnik holati, ishlash qobiliyati, qismi va birikmalarning har xil omillar ta‘sirida eskirishi, eyilishi haqida tushuncha paytida ularga sarflanadigan ehtiyot qismlar uchun me‘yorlar keltirilgan.

12. Mavlonov B.M va boshqalar “Avtomobil va dvigatellarni ta‘mirlash”. Ushbu darslikda avtomobil va dvigatellarni ta‘mirlash fanining namunaviy dasturi asosida yozilgan bo‘lib, unda avtomobillarning ta‘mirlash asoslari, avtomobillarni tubdan ta‘mirlash texnologiyasi, detallarni quyma korpus detallarni ta‘mirlash usullari, ularni tasnifi va mazmuni, ta‘mirlash samaradorligini oshirish hamda jarayonlarni ixtisoslashtirish masalalari bayon etilgan.

13. Xamraqulov O., Xamraqulov X., “Avtomobil detallari ishlash qobiliyatini qayta tiklash” o‘quv qo‘llanmasida avtomobillarni to‘liq ta‘mirlash jarayonida defektoskopiya asosida ajratilgan, ta‘mirlanish kerak bo‘lgan detallarni ishlash qobiliyatini tiklash uslublari va texnologiyalari hamda qo‘llaniladigan jihozlar va materiallar bo‘yicha ma‘lumotlar mujassamlangan.

14. Gurin F.V., Klenikov V.D., Reyn V.V., “Avtomobilsozlik texnologiyasi”. Zavodlarda avtomobil ishlab chiqarish texnologiyasi asoslari va ularni qo‘llash va takomillashtirish yo‘llari berilgan.

15. G‘.Yo.Yormatov, O.R.Yuldashev, A.L.Hamrayev “Hayot faoliyati xavfsizligi“ darsligida ob-havo sharoiti va inson faoliyati, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarida shamollatish qurilmalariga qo‘yiladigan asosiy talablar, changlangan havoni tozalash qurilmalari, shovqindan saqlanish, texnika vositalarida xavf-xatarlar va ulardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish qonunlari va tashkiliy asoslari va yong‘inni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlari to‘risida kerakli ma‘lumotlar berilgan.

16. Yu.Qirg‘izboyev, Z.Inog‘omova, T.Rixsiboyev “Texnik chizmachilik kursi” darsligida chizmalar haqida umumiy ma‘lumotlar, chiziqli turlari, shriftlarning yozilish tartiboti, masshtablar, chizmalarga qirqim berish usullari, burchak shtamplarining ko‘rinishi, chizmalarga o‘lchamlar qo‘yish usullari va shu kabi ma‘lumotlar berilgan.

17. Yo‘ldoshev SH.U. “Mashinalar ishonchliligi va ularni ta‘mirlash asoslari”. Darslikda mashinalar detallarining eyilishi asoslari to‘g‘risida fikr yuritilib mashinalar ishonchliligi va ta‘mirlash jarayonlari bayon etilgan.

Maskur BMibitiruv makakaviy ishni qismlarini yoritishda o‘quv adabiyotlardan tashqari internet ma‘lumotlaridan xam keng foydalanildi.

<http://www.maha.ru>, www.ziyonet.uz, www.uzex.uz, www.lex.uz


4. ASOSIY QISM

Avtomobillarning yonilg'i boklarini tayyorlashda bosim bilan ishlash, payvandlash ishlari asosiy jarayonlar xisoblanadi. Yonilg'i boklarini shtamlash jarayonida katta kuch bilan ishlovchi presslardan foydalaniladi.


“UzSeaMyung CO” AJ qo'shma korxonasi **“GM-Uzbekistan” OAJ** avtomobillari uchun yonilg'i boklarini va butlovchi qismlar ishlab chiqarishga moslashgan. Oliy sifatli maxsulotlari uchun 2011 yil 17 iyul ISO/TS 16949-2009 standarti sertifikatini oldi(1-rasm).



1-rasm. **“UzSeaMyung CO”** qo'shma korxonasining olgan standart
sertifikati




2-rasm. “UzSeaMyung CO” AJ qo‘shma korxonasining xaridorlari




3-rasm.Korxonaning bosh rejasi. Umumiy yer maydoni 3.15 ga

- | | |
|--------------------------|-------------|
| 1.Presslashsexi № 1 | 1 000 kv.m. |
| 2. Ishlabchiqarishbinosi | 2 855 kv.m. |
| 3. M300 payvandlashsexi | 1296kv.m. |

4. Ombor	3 648 kv.m.
5. OmborGSM	360 kv.m.
6. Kompessor	63 kv.m.
7. Transformator	140 kv.m.
8. Gradirna	80 kv.m.
9. Asosiy ofis	703 kv.m.
10. Konteyner maydoni	1125kv.m.
11. Oshxona	504 kv.m.
12. Sifat nazorat joyi	30 kv.m.
13. Presslash sexi №2	864 kv.m.
14 Transformator	36 kv.m.
15. Kompessor	42 kv.m.
16. Ofis	75 kv.m.
17. Ta'mirlashbo'limi	216 kv.m.



4-rasm. Yonilg'i bakini yig'uv sexi sxemasi.



5-rasm. Payvandlash sexi sxemasi.


Sanoat robotlari ish joyiga oʻrnatilish usuliga karab polga oʻrnatiladigan, shipga osiladigan va ichkari joylanadigan, koʻchish imkoniyatiga karab esa, bir joyda ishlaydigan va koʻchma boʻladi.

Sanoat robotlari manipulyatorning yuritmasiga va koʻchish qurilmasining turiga karab elektromexanik, gidravlik, pnevmatik va aralash yuritmali boʻladi.

Sanoat robotlari yuk koʻtarish kuchiga qarab, oʻta yengil (1 kg gacha), yengil (1—10 kg), oʻrtacha (10—200 kg), ogir (200—1000 kg) va oʻta ogir (1000 kg dan ogir) robotlarga boʻlinadi.

Sanoat robotlari manipulyatorning yuritmasiga va koʻchish qurilmasining turiga karab elektromexanik, gidravlik, pnevmatik va aralash yuritmali boʻladi.

Sanoat robotlari yuk koʻtarish kuchiga qarab, oʻta yengil (1 kg gacha), yengil (1—10 kg), oʻrtacha (10—200 kg), ogir (200—1000 kg) va oʻta ogir (1000 kg dan ogir) robotlarga boʻlinadi.



6-rasm. Aralash koordinatalar sistemasili «Kontur-002» modeli sanoat roboti:

1 — asos; 2 — burish qurilmasi; 3 — yelka; 4 — gidrotsilindr; 5 — yelkaoldi bilak; 6 — kaft; 7 — ish organi; 8 —, prujinalar; 9 — gidrosilindr.

6-rasmda ko‘p zvenoli qo‘l bilan jihozlangan «Kontur-002» modeli statsionar sanoat roboti ko‘rsatilgan. Bu robot aralash koordinatalar sistemasi qo‘llanilgan robotlar turku-miga kiradi. Bunday robotlar MDH da («Koler», «Kontur-002» va b.), Italiyada («SPRAYING ROBOT», «PAINTER»), SHvetsiyada («ASEA IRB-6», «COAT-A-MATIC» va b.), Germaniyada (IR-5E, IR-30E va b.) va boshqa davlatlarda chiqariladi. Modul tarzida to‘zilgan sanoat robotlari avtomatlashtirilgan texnologik uskunalarning rivojlanishidagi kabi turli manipulyatorlarni, axborot va boshqaruvchi sistemalarni modullar asosida yaratish printsipi katta ahamiyatga ega.

“UzSeaMyung” AJ korxonasida yangi modelga tayyorgalik juda arzon va qisqa vaqt ichida amalga oshiriladi. Chunki qo‘shma korxonaning barcha texnologiyalari xatto shtamplash preslari xam o‘zgaruvchanlik xususiyatlariga ega.

Yuqorida keltirilgan murakkab operatsiyalarni bajarishga mo'ljallangan robotlar korxonaning asosiy jixozlari xisoblanadi. Yangi modelni ishlab chiqarish jarayonida tayyorgarlik uchun qilinadigan sarf-xarajatlar jixozlar tannarxini atiga 1% ni tashkil etadi. Bu jarayonning uzluksiz, xech bir qiyinchiliklarsiz yangi modelga moslashtirishga imkon beradi(7,8-rasmlar).



7-rasm. O'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan HYOSUNG robotlari



8-rasm. O'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan ABB robotlari

5 . TEXNOLOGIK QISMI.

“UzSeaMyung CO” AJ qo‘shma korxonasida yangi modelga tayyorgalik juda arzon va qisqa vaqt ichida amalga oshiriladi. Chunki qo‘shma korxonaning barcha texnologiyalari xatto shtamplash preslari va payvandlashda xam o‘zgaruvchanlik xususiyatlariga ega (7-8-rasmlar).

Payvandlash sexlaridagi xar bir payvandlash postlari mustaqil ravishda zaruriy jixozlar bilan jixozlangan. Payvandlash postlaridagi robotlar ikki turga bo‘linadi:

1-Nuqtali payvandlash robotlari;

2-Chokli payvandlash robotlari.

1- **Nuqtali payvandlash** kontaktli payvandlashning bir usuli bo‘lib, bunda detallar chegaralangan alohida tegish joylari bo‘yicha (nuqtalar qatori bo‘yicha) payvandlanadi. Nuqtali payvandlashda detallar ustma-ust yig‘ilib, elektr toki manbayi (masalan, payvandlash transformatori) ulangan elektrodlar yordamida F pay kuchi bilan siqiladi. qisqa muddati payvandlash toki Ipayo‘tganda detallar ularning o‘zaro erish zonasi paydo bo‘lguncha qiziydi. Bu zona o‘zak (yadro) deb ataladi. Payvandlash joyi (zonasi) qiziganda detallarning bir-biriga tegish joyida (o‘zak atrofida) metall plastik deformatsiyalanadi. Bu joyda zichlovchi belbog‘ hosil bo‘lib, u suyuq metallni chayqalib to‘kilishdan va atrof havosidan ishonchli tarzda himoyalaydi. Shu bois payvandlash joyini maxsus himoyalash talab qilinmaydi. Tok o‘zib qo‘yilgandan so‘ng, o‘zakning erigan metali tez kristallanadi va biriktirilayotgan detallar orasida metall bog‘lanishlar vujudga keladi. Shunday qilib, nuqtali payvandlashda detallarning birikishi metallning erishi bilan sodir bo‘ladi. Nuqtali payvandlashda detallar 50 Hz sanoat chastotali o‘zgaruvchan tok impulsleri bilan, shuningdek o‘zgarmas yoki unipolyar tok impulsleri bilan qizdiriladi. Nuqtali payvandlashda payvand chok to‘rt bosqichda hosil bo‘ladi.

Birinchi bosqich tayyorgarlik (siqish) bosqichida payvandlanadigan yuzalar muayyan kuch ta‘sirida bir-biriga tegadi. Tegish joylaridagi mikronotekisliklar deformatsiyalanadi va oksid pardalari yemiriladi. Tegish

qarshiliklari kamayadi va barqarorlashadi, birikma payvandlash tokini ulashga tayyorlanadi.

Ikkinchi bosqich payvandlash toki ulangan paytdan boshlanib, quyma o'zakning eriy boshlashi bilan nihoyasiga yetadi. Mazkur bosqich vaqtida metall qiziydi va birikish joyida kengayadi. Metall qizishi bilan plastik deformatsiyalar ortadi, bu deformatsiyalar ta'sirida metall tirqishga siqib chiqariladi va belbog' hosil bo'lib, u o'zakni zichlaydi.

Uchinchi bosqich erigan zona paydo bo'lishidan va uning quyma o'zakning nominal diametrigacha kattalashishidan boshlanadi. Bu bosqichda oksid pardalari bo'linib va yemirilib, o'zakning erigan metalida aralashadi. Elektr-dinamik kuchlarning ta'sir ko'rsatishi ushbu jarayonga yordam beradi va suyuq metall jadal aralashishiga hamda turli xil metallarni payvandlashda o'zakning tarkibi tekislanishiga olib keladi. Bunday aralashishida oksid pardalar va iflosliklarning erimaydigan zarralari erigan metall chetida to'planadi.

To'rtinchi bosqich tok o'zib qo'yilgan paytdan boshlanadi. Ushbu bosqich vaqtida metall soviydi va kristallanadi hamda payvandlash joyi cho'kichlanadi.

2- **Chokli payvandlash** bir-birini berkitib turuvchi nuqtalar qatorini hosil qilish yo'li bilan zich birikma (chok) olish usulidir. Bunda aylanuvchi disksimon elektrodlar — roliklar yordamida tok keltiriladi va detallar siljiriladi. Nuqtali payvandlashda bo'lgani kabi detallar ustma-ust yig'iladi va payvandlash tokining qisqa muddatli impulslari bilan qizdiriladi. Nuqtalarning bir-birini berkitib turishiga tok impulslari o'rtasidagi to'xtam (pauza)ni va roliklarning aylanish tezligini tegishli tanlash orqali erishiladi. Chokli payvandlashning uzlukli, uzluksiz va qadam-baqadam turlari bo'ladi. Roliklar yordamida uzluksiz payvandlashda payvandlanayotgan detallar o'zgarmas tezlikda uzluksiz harakatlanadi. Bunda payvandlash toki uzluksiz ulangan bo'ladi. Roliklar yordamida uzlukli payvandlashda qisqa muddatli tok impulslari (t_u) to'xtamlar (t_T) navbatlashib keladi va detallar uzluksiz harakatlanadi. Roliklar yordamida qadam-baqadam payvandlashda payvandlash toki ulangan paytda roliklar vaqtincha to'xtaydi — detallar harakatlanmaydi, bu esa roliklarning yeyilishini, qoldiq

zo‘riqlashlarni va darzlar hamda kavaklar paydo bo‘lishiga moyillikni kamaytirish imkonini yaratadi. Chokli payvandlashda detallar ko‘pincha ustma-ust yig‘iladi va payvandlanadi. Ammo ayrim hollarda chokli uchma-uch payvandlashdan ham foydalaniladi, bu hol birikmalarning siklik mustahkamligi yuqoriroq bo‘lishini ta‘minlaydi. Bunda payvandlanayotgan detallar to‘laroq erishi uchun folgadan yasalgan ustqo‘ymalardan foydalaniladi.

Nuqtali payvandlash postlarida payvandlash jixozlari va payvandlash moslamalari mavjud. Payvandlash jixozlari deb payvandlash ishlarini amalga oshiruvchi maxsus robotlar (8-rasm), payvandlash moslamalari esa payvandlash ishlarini bajarishda yordam beruvchi qo‘shimcha uskunalar tirgaklar (jiglar). Tirgaklar doimiy, olinuvchan, ochiluvchan, qayriluvchan va buriluvchan bo‘ladi. Doimiy tirgaklar eng ko‘p tarqalgan bo‘lib, ishlov berilgan tekis yuza, ustun, burchakliklar, ko‘rinishida namoyon bo‘ladi.


Tirgaklar moslama asosiga payvandlanadi yoki shtiftlar bilan burib qotiriladi. Olinuvchan hamda doimiy tirgaklar detallni moslama erkin o‘rnatish yoki payvand uzelin qiyinlashtiradigan hollarda qo‘llaniladi. Ochiluvchan, qayriluvchan, buriluvchan tirgaklarni olinuvchan tirgaklarga nisbatan ishlatilishi oson va qulay hisoblanadi. SHuning uchun yuqoridagi holda bu tirgaklarni qo‘llash maqsadga muvofiqroq (9-rasm).

- o‘rnatilayotgan bazaga nisbatan, detallarni siljimaydigan qilib mahkamlash uchun bosish kuchini to‘g‘ri yo‘naltirishi;
- yig‘ish va payvandlashning butun jarayonida detallarning mustahkam, birkir o‘rnatilishi;
- harakatning tezkorligi;
- detallarni moslamaga qulay o‘rnatish imkoniyati, payvandlashning qulayligi hamda payvandlashdan keyin buyumni moslamadan olish imkoniyati;
- ularni harakatga keltirish uchun (qo‘l moslamalariga) bora olishning qulayligi;
- ishdagi havfsizlik.



9-rasm. Payvandlash postlaridagi tirgaklar (jiglar).

Chokli payvandlash postlarida xam payvandlash jixozlari va payvandlash moslamalari mavjud. Payvandlash jixozlari deb payvandlash ishlarini amalga oshiruvchi maxsus robotlar (7,8-rasmlar), payvandlash moslamalari esa payvandlash ishlarini bajarishda yordam beruvchi qo‘shimcha uskunalar tirgaklar (9-rasm).



10-rasm. Payvandlash postlaridagi tirgaklar (jiglar).

NUQTALI PAYVANDLASH.

Misol tariqasida ikki xil qalinlikdagi po‘lat listlarni olamiz 1-jadval:

- 1) Po‘lat list qalinligi: 0,8 mm;
- 2) Po‘lat list qalinligi: 1,0 mm.

“OBARA” kompaniyasining “WELTEC SC 771 V” nuqtali payvandlash jixozi(11-rasm) xar xil qalinlikdagi polat listlarni payvandlashga moslashgan bo‘lib uning maksimal kuchlanishi 150 kWa ni tashkil etadi.



11-rasm. “WELTEC SC 771 V” pavandlash jixozi nazorat paneli.

Nazorat paneli ko‘rsatkichlarini o‘zgartirish yo‘li bilan, metal qalinligiga mos ravishda tok ko‘rsatkichlari va xavoning bosimi belgilab olinadi. Natijada xar qanday qalinlikdagi po‘lat listlarni payvandlash imkonini beradi.

“WELTEC SC 771 V” nuqtali payvandlash jixozining ISO/TS-16949 standartiga asosan o‘zgaruvchanligi xususiyati ko‘rsatkichlari. 1-jadval

No	Po‘lat list qalinligi; mm,	Tok kuchlanishi miqdori; kWa,	Xavo bosimi; MPa
1	1,0	14,5	0,6
2	0,9	14	0,5
3	0,8	13,5	0,4
4	0,7	13	0,35
5	0,6	12.8	0,3
6	0,5	12	0,28

Jixozning tok kuchlanishi, xavoning bosimi kerakli darajada sozlanishi bilan xar qanday qalikdagi listlarni payvandlash uchun moslashtirilishi (o‘zgartirishi) mumkin.



“ABB” robotlarida xam o‘zgaruvchanlik xususiyatlari mavjud(12-rasm).


12-rasm. ABB nuqtali payvandlash roboti.

“ABB” payvandlash robotlari o‘zgaruvchanligi eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan. Ushbu robot asosan 4-qismdan tashkil topgan:

- 1-payvandlash jixozi;
- 2-payvandlash uskunasi;
- 3-bosh kompyuter;
- 4-payvandlash uchlarini o‘tkirlash moslamasi.

1-Payvandlash jixozi yangi model uchun o‘zgartirilayotganda deyarli o‘zgarmaydi.

2-payvandlash uskunasi yangi turdagi detalni shakliga qarab o‘zgartiriladi, bunday ishlarda kam xarajat va qisqa vaqt sarfiga erishish mumkin(13-rasm).



13-rasm. ABB robotining payvandlash uskunasi.

3-bosh kompyuterga detalni payvandlashning xar bir qadami belgilangan dastur kiritiladi. Bu dastur detalni loyixalash davrida moslashuvchanlik imkoniyatlaridan kelib chiqib to‘ziladi. Ayni vaqtda “Uz-SeaMyung CO” qo‘shma korxonasining mutaxasislari tomonidan mustaqil tarzda standartga asosan to‘zilmogda. Ishlab chiqarishni asosiy qonuni kam xarajat qilib, yuqori sifatli maxsulot olish. Ushbu jixozni o‘zgaruvchanligi shundaki yangi elektron dastur to‘zish bilan uning xarakatlanish yo‘nalishi butunlay o‘zgarishi mumkin, buning uchun yangi to‘zilgan dasturni pleshka yordamida kompyuter xotirasiga kiritish kifoya(14-rasm).



14-rasm. ABB robotini qo‘l bilan boshqarish moslamasi.

Yuqorida ko‘rsatilgan qo‘l bilan boshqarish moslamasi orqali bosh kompyuterni dasturini pult orqali qo‘lda xam to‘zish mumkin. Buning uchun juda qisqa vaqt davomida robotning xar bir xarakati xotiraga saqlab(сaxpанить) boriladi. Yoki o‘sha moslama orqali dastur kompyuterga kiritiladi, natijada bosh kompyuter yangi dasturni yodlab muammo va xatoliklarsiz yangi rejimlarga o‘zgaradi.

4-payvandlash uchlarini o‘tkirlash moslamasi bosh kompyuter dasturida belgilab qo‘yilgan vaqtlarda nuqtali payvandlash uchlarini o‘tkirlab turadi(15-rasm).

Misdan quyish yo‘li bilan tayyorlangan payvandlash uchlari doimiy tarzda o‘tkirlab turilishi kerak aks xolda payvandlash sifati pasayib payvand diametrlari

nostandart o'lchamlarga o'zgarib ketadi bu ega maxsulot sifatiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.



15-rasm. ABB robotining payvand uchini o'tkirlash moslamasi.

Bu moslamaning sifat darajasini oshirishda ahamiyati juda katta. Uning yordamida quyish asosida tayyorlangan payvand uchlarini vaqti vaqti bilan o'tkirlab standart talablari darjasida ishlashi uchun zamin yaratadi. Pirovard natija sifatli maxsulot olinadi.

“ABB” nuqtali payvandlash robotining ISO/TS-16949 standartiga asosan o'zgaruvchanligi xususiyati ko'rsatkichlari. **2-jadval**

№	Po'lat list qalinligi; mm,	Tok kuchlanishi miqdori; kWa,	Xavo bosimi; MPa
1	1,0	14,5	0,6
2	0,9	14	0,5
3	0,8	13,5	0,4
4	0,7	13	0,35

Jixozning tok kuchlanishi, xavoning bosimi bosh kompyuter dasturida belgilab qo'yilgan bo'ladi, kerakli darajada sozlanishi bilan xar qanday qalikdagi listlarni payvandlash uchun moslashtirilishi (o'zgartirishi) mumkin(2-jadval).

CHOKLI PAYVANDLASH.



Chokli payvandlash ishlari rolikli payvandlash jixozlarida amalga oshiriladi.

Chokli payvandlash jixozlari quyidagi qismlarga bo'linadi:

1-chokli payvandlash jixozi;

2- chokli payvandlash uskunasi;

1-Chokli payvandlashda ishlatiladigan jixozlar o'zining ergonomik ko'rsatkichlari, o'zgaruvchanlik xususiyatlari bilan ajralib turadi(16-rasm).



16-rasm. “HYOSUNG CORPORATION” chokli payvandlash jixozi.

Janubiy Koreyada ishlab chiqarilgan chokli pavandlash jixozi payvandlash ishlarida eng qulay va zamonaviy texnologiyalardan biridir. Uning ko'rsatkichlari jaxon standarti darajasida. ISO/TS-16949 standartiga javob bera oladi.

Chokli payvandlashda payvandlanishi kerak bo'lgan yonilg'i bokining aniq o'lchamlari kompyuter texnologiyasi yordamida dasturi tayyorlab olinadi. Tayyorlab olingan dastur payvandlash jixozi kompyuteriga kiritiladi, natijada bosh kompyuterning o'zi ishni boshlashga tayyor xolatda bo'ladi.

Odatda yangi model uchun dastur konstruktor tomonidan ishlab chiqarilar va uni katta mablag‘lar evaziga Janubiy Koreya mutaxassislaridan olib kelinar edi. Korxonaning ichki imkoniyati kengayishi va mahalliyashtirish dasturi sababli bunday dasturlar korxonaning muhandislari tomonidan tayyorlanmoqda.

Kompyuter uchun tayyorlangan dastur maxsus USB moslamasi orqali kompyuterga yuklanadi yoki payvandlash jarayonining xar bir xarakati saqlab (сохранить) boriladi. Dastur kompyuter panelida sozlamani tasdiqlaydi(17-rasm).



17-rasm. Dastur paneli.


Uning yana bir qulayligi bir vaqtning o‘zida bir necha xil modelni dasturga kiritish mumkin bu esa jarayonning uzluksiz va sifatli borishini ta‘minlaydi. Buning uchun ya‘ni yangi modelga o‘tish uchun dasturdagi modelni tanlash va START tugmasini bosish kifoya(18-rasm).



18-rasm. Nazorat paneli.

Natijada yangi rejimga o'tadi va ishni davom ettiradi. Bu esa qisqa vaqt ichida yangi model uchun moslashadi.

2-chokli payvandlash uskunasi xuddi nuqtali payvandlash uskunasi kabi almashtirish imkoniyatiga egadir. Buning uchun yangi model moslashtirilgan uskunani o'rnatish kifoya. Bu esa kam xarajatsiz o'zgaruvchanlik xususiyatini beradi(19,20-rasmlar).



19-rasm. Spark avtomobilining yonilg'i bokining payvand uskunasi.



20-rasm. Nexia avtomobilining yonilg'i bokining payvand uskunasi.

Payvandlash uskunalari qo'llashdan asosiy maqsad.

- o'rnatilayotgan bazaga nisbatan, detallarni siljimaydigan qilib mahkamlash uchun bosish kuchini to'g'ri yo'naltirishi;
- yig'ish va payvandlashning butun jarayonida detallarning mustahkam, bika o'rnatilishi;
- harakatning tezkorligi.

6 . IQTISODIY QISMI

“O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ni, iqtisodiy jixatdan asoslash orqali uni amaliyotga joriy etish mumkun. Iqtisodiy asoslashda xozirgi kundagi bozordagi resurs narxlaridan foydalaniladi, ishlab chiqariladigan mahsulotni raqobot darajasi xisobga oliniadi, shunigdek shu kundagi loyxa orqali tayyorlangan mahsulotni narxi xisoblanib bozordagi narxga solishtiriladi, ishlab chiqarish dasturini tuzishda raqobat daraja hisobga olinadi. loyxani amalga oshirish uchun kerakli mablag`ni bank kredit foizi xisobga olinadi, uni bankga qaytarish muddati talabdan oshib ketmasligi kerak. Bunday iqtisodiy asoslash quydagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning dastlabki ma'lumotlari 1-jadvalga to'ldiriladi.
2. “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning asosiy fondi xamda ishlab chiqarish fondi hisoblab chiqiladi.
- 3 “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning yillik ishlab chiqarish xajmi va tayorlov narxi (mahsulot birligiga) hisoblanadi.
- 4 “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning ishlab chiqarish dasturi tuziladi. Undan olinadigon daromad tannarx, yalpi foyda, amartizatsiya va samaralar hisoblanadi.
- 5 “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning o`zini oqlash muddati hisoblanadi.
6. Asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari: fond qaytimi aylanma fondlarni aylanishi soni, yillik mehnat unumdorligi, rentabelliklar xisoblanadi.

I Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigon, dastgox, resurslar, ularni bozordagi narxlari va sarf me'yorlari (1-jadval) hisoblanadi.

1-jadval

№	Ko'rsatkichlar nomi	O'lchov birligi	Qiymati
1	“O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida) loyihasi	dona	1
2	o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish ni sinash stendi qiymati	m.so'm.	90200
3	o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish sinash stendining unimdorligi	dona/kun	1000
4	Ishchilar soni	nafar	3
5	Elektrodvigatel quvvati	Kvt/soat	3
6	Snundan ustalar soni	nafar	1
7	Smenana soni	smena	2
8	Yoqilg'I baki qopqog'I ehtiyot qism	m.so'm/don	2500
9	Ishchilar o'rtacha oyli	m.so'm.	800
10	Yildagi ishchi kunlar soni	Kun	305
11	Ish davomiyligi	saot	7

II. “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning asosiy hamda ishlab chiqarish fondi hisoblab chiqiladi.Shuningdek ish tashkil qilishdagi ishlab chiqarish fondini hisoblash. (baxosi)

1) “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida) loyihasining bahosi
 $F_{das}=90200m.so'm$

2) Asosiy fond uchun sarf $F_{as} = 90200$ m so'm

4) Aylanma fond qiymati $F_{ay} = F_{os} 0,14 = 90200 * 0,14 = 12628$ m so'm

5) Ishlab chikarish " $F_{i/ch}$ " fondini topamiz.

$$F_{i/ch} = F_{as} + F_{ay} = 90200 + 12628 = 102828 \text{ m so'm}$$

4) Ishlab chiqarish fondini tashkil qilish uchun ustama xarajat (kredit tulov foizi) larini hisoblaymiz.

$$\Delta F_{i/ch} = F_{i/ch} * K = 102828 * 0,14 = 14395 \text{ m so'm}$$

5) Ishni tashkil qilish va kredit to'lovini hisobga olgan holdagi jami kapital hajimni topamiz.

$$K = F_{i/ch} + \Delta F_{i/ch} = 102828 + 14395 = 117223 \text{ m so'm}$$

III "O'z SeMyung" korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o'zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning yillik ishlab chiqarish hajmi va tayyorlov narxi (mahsulot birligiga) hisoblanadi

a) yillik yoqilg'i baki sifatini oshirish jixozining hajmi:

$$\sum Q = d_{n1} * D_r = 1000 * 305 = 305000 \text{ don/yil}$$

d_{n1} – o'zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish jixozining unumdorligi 1000 don/kun

D_r -yillik ishchi kunlar 305 kun

n -smena soni 2 ta

T_{sm} -smenadagi ish davomiyligi 7 soat

N_A -turli turdagi dastgohlar soni 1ta

IV "O'z SeMyung" korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o'zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning ishlab chiqarilgan mahsulot birligi narxi topiladi. Unda olinadigon daromad tannarx, yalpi foyda, amartizatsiya va samaralar hisoblanadi.

Bunda "O'z SeMyung" korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o'zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ning hisoblaymiz. Xizmat birligini tayyorlov narxi quydagi model bilan topiladi:

$$D_1 = m_1 + X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5 + X_6 + X_8 + X_9,$$

m_1 __ xizmat birligiga mehnat sarfi.

X_1 ijtimoiy ajratma sarfi.

X_2 material sarfi.

X_z elektro-energiya sarfi

X_4 qurilmasni ishlatishga tayyorlash sarfi.

X_5 amortizatsiya sarfi.

X_6 davriy xarajatlar.

X_8 yalpi foyda.

X_9 yo'l fondi va turli ajratmalar sarfi.

a) loyixadagi ishchi va ustalar ni sonini quydagicha aniqlaymiz.

$$R_{sr} = N_1 \times R_1 + N_2 \times R_2 + \dots + N_n \times R_n / \sum N_i, N_1, N_2, \dots, N_n =$$

$$(3 \times 1 + 4 \times 1 + 5 \times 1) : 3 = 3,5 / \text{raz}$$

$R_1, R_2, \dots, R_n$ – Raziryati mavjud odamlar;

.

2-jadval

№/№	Mutaxassisligi	Ishchilar umumiy soni	Razryadlar				
			1	2	3	4	5
1	ishchi	3		1	1	1	
1	Usta	1					1
	jami	4		1	1	1	1
	Boshqaruvchi	1					

A) m_1 – yoqilg'I baki sifatini oshirish ishchisi (usta) uchun oylik maosh xarajatlarini hisoblash

$$m_1 = T_{um} \times S_t \times K_d / \sum Q;$$

Bunda: T_{um} – yonilgi bakini shtamplash texnologiyasini yillish ish soati

K_d – rejani oshirib bajarishni hisobga oluvchi koeffitsienti 1.2

$$T_{um} = D_r \times T_s \times n \times N_p = 305 \times 7 \times 2 \times 1 = 4270 \text{ soat}$$

D_r – ishchi kuchlar soni 305 kun

T_s – smena davomiligi 7 soat;

n - smena soni 2 smena

N_p - Ishda band bo'lganlar soni 1 nafar

$$S_t - (M/F) * K_1 = \frac{800000}{169.2} \times 1.15 = 5437 \text{ so'm/soat}$$

Bunda

M – asosiy ishchisi oylik maoshi 800 ming so'm;

F – oylik balans soati 169;

K_1 – tuman koeffitsienti 1.15;

$$M_1 = T_{um} * S_t * K_d * \sum Q = 4270 * 5437 * 1,2 / 305000 = 76 \text{ so'm/ don}$$

B) Ijtimoiy sug'urta ajratmasi

$$X_1 = 0,48 * m_1 = 0,48 * 76 = 37 \text{ so'm/ don}$$

V) “O`z SeMyung” korxonasida ishlab chiqarish jarayonining o`zgaruvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish (benzobak misolida)ga extiyot qism hamda material sarfi X_2 ni topamiz

Biz faqat yonilg'i bakini tayyorlashda tekshirish bosqichlari va ularning sifatini oshirishning narxini hisoblaymiz, bu xarajat o'rtacha bir birlik uchun.

$$X_2 = N_1 * TS_1 = 1435 * 1 = 1435 \text{ so'm/ don}$$

TS_1 yaim fabrikat sarfi 1435 so'm/ don

N_1 – ta'minadigon stand 1 ta

G) Stenddagi energiya sarfi so'm/ don

